ISNN 3030-3907

2026/3
VOLUME 5

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/3 VOLUME 5

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

TEMIR YO‘LLARDAGI TEXNIK VOSITALARINI XAVFSIZLIK QOIDALARIGA MUVOFIQLIGINI TA’MINLASH CHORA TADBIRLARI

Asanov Anvar Toshmurot o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti, Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Hamdamov Sohib G‘ofur o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti 29A-22 MMTX guruh talabasi

Annotatsiya. Respublikamizda har bir sohaning mehnat sharoitlari xavfsizligini oshirishda ish joyidagi xavfli ishlab chiqarish omillari manbalarining yuzaga kelish sabablari, mehnat jarayonining og‘irligi va zo‘riqish parametrlari son va sifat ko‘rsatkichlarini baholash hamda innovatsion-texnik yechimlar, tashkiliy va sanitar-gigiyenik tavsiyalar ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, bu borada muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, “Barcha transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, transport sohasida tashqi savdo uchun “yashil koridorlar” hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish” bo‘yicha muhim maqsadlar belgilab berilgan. Ushbu maqsadlarga erishishda, jumladan, temir yo‘l stansiyalari poyezd tuzuvchilarining kasbiy muvofiqligini belgilovchi jismoniy harakat sifatlari mezonlari asosida kasbiy faoliyatga muvofiqlikni baholash algoritmlari va ma’lumotlar bazasi ko‘rinishidagi instrumental vositalarni yaratish hamda kasbiy muvofiqligini belgilovchi harakat sifatlari, asab-ruhiy tavsiflarini o‘rganish bo‘yicha eksperimentlar o‘tkazish va kasbiy muvofiqligini belgilovchi harakat sifatlarini baholash uslubini asoslash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Temir yo‘l transporti, mehnat sharoitlari, innovatsion-texnik yechimlar, logistika, instrumental, yuklar, avariya-tiklash, sertifikatlashtirish.

Аннотация. В целях повышения безопасности условий труда в каждой отрасли нашей республики установлены причины возникновения источников опасных производственных факторов на производстве, тяжести трудового процесса и оценка количественных и качественных показателей стрессовых параметров, а также по разработке инновационных и технических решений, организационных и санитарно-гигиенических рекомендаций проводятся комплексные работы и в этом отношении достигаются определенные результаты. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, в том числе «Развитие единой транспортной системы с интегральной связью

ISSN 3030-3907

всех видов транспорт, развитие рынка и инфраструктуры транспортно-логистических услуг», для иностранных торговля в транспортном секторе Определены важные цели для «зеленых коридоров» и расширения транзитных возможностей. Для достижения этих целей в том числе создание инструментальных средств в виде алгоритмов и баз данных для оценки пригодности к профессиональной деятельности на основе критериев двигательных качеств, определяющих профессиональную пригодность проводников поездов железнодорожных станций, а также изучение двигательных качеств и нервно-психологических характеристик, определяющих профпригодность, одной из важных задач является проведение экспериментов по обучению и обоснование методики оценки действий, определяющих профпригодность.

Ключевые слова: железнодорожный транспорт, условия труда, инновационно-технические решения, логистика, инструментальный, грузы, аварийно-восстановительный, сертификация.

Abstract. In order to improve the safety of working conditions in each industry of our republic, the causes of sources of hazardous production factors, the severity of the labor process, and quantitative and qualitative indicators of stress parameters are determined, and comprehensive work is being carried out to develop innovative and technical solutions, organizational and sanitary and hygienic recommendations, and in this regard certain results are being achieved. In the development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026, including “Development of a unified transport system with integral communication of all types of transport, development of the market and infrastructure of transport and logistics services”, trade in the field of transport for foreign countries defines “green corridors" and important goals to expand transit opportunities. To achieve these goals, including the creation of instrumental tools in the form of algorithms and databases for assessing suitability for professional activities. One of the important tasks is to conduct experiments on the criteria of motor qualities that determine the professional preparedness of passengers at railway stations, as well as to study the motor qualities and neuropsychological characteristics that determine professional preparedness. on research and justification of the method for assessing the qualities of action that determine professional suitability.

Keywords: railway transport, working conditions, innovative technical solutions, logistics, instrumental, cargo, emergency recovery, certification.

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishini

ISSN 3030-3907

harakatlar strategiyasida ko‘rsatib o‘tgan uchinchi yo‘nalishi “Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va liberallashtirish” yo‘nalishida quyidagilar alohida ko‘rsatilib o‘tilgan.

Inson hayotining xavfsizligini ta’minlash muammosi har bir jamiyat uchun dolzarb masala bo‘lib, u davlatning iqtisodiy rivojlanganligi va barqarorligiga bog‘liq. Bu hozirgi vaqtda ilmiy–texnik taraqqiyot keltirib chiqargan murakkab muammolarni har tomonlama yechishni, katta miqdorda mablag‘ va ishlab chiqarishning yuqori madaniyatini talab qiladigan muammodir. Ushbu muammoni hal etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevralda imzolangan Farmoni dastur amal bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa O‘zbekiston Respublikasini iqtisodiy qudratli, kuchli ilmiy–texnik va intellektual imkoniyatlarga ega bo‘lgan davlat ekanligini ko‘rsatib, belgilab olingan vazifalardan kelib chiqqan holda xavfsizlik muammolarining yechimini topishda, jamiyatning barcha a’zolarining faol ishtirokini, yuqori fuqarolik ongini, ayrim hollarda jamiyat, kelajak avlod manfaati uchun, shaxsiy manfaatlardan kechishini, jamiyat a’zolaridan yuksak madaniyatli va kuchli ma’naviyatlikni talab qiladi. Bu tamoyillarning yechimi chuqur tahlil qilingan va tashkil qilingan uzluksiz, ya’ni ta’limning barcha o‘timlarini qamrab olgan ta’lim va tarbiya tizimlari, shuningdek ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritayotgan ma’sul rahbar-xodimlar zimmasida bo‘ladi. Xurmatli Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Biz yangicha mustaqil fikrlaydigan, ma’suliyatli, tashabbuskor, ilg‘or boshqaruv usullarini puxta o‘zlashtirgan, halol, o‘z Vatani va xalqiga sodiq kadrlarni tayyorlash bo‘yicha samarali tizim yaratish ustida jiddiy ishlaymiz.

Rahbarlar faoliyatiga, ularga bo‘lgan ishonch va aholini o‘ylantirayotgan muammolarni samarali hal etish darajasidan kelib chiqqan holda, xalqning o‘zi baho beradi”.

Korxonalarda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini takomillashtirish shuningdek inson xavfsizligini ta’minlash, ayniqsa uni ish jarayonida bevosita ishlab chiqarishda o‘z dolzarbligini ko‘rsatadi. Chunki zamonaviy korxonalarning xarakterli tomoni shundaki, unda bir korxonaning o‘zida turli-tuman va tez o‘zgaruvchan texnologik jarayonlarda materiallar, yuqori darajali mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan elektr hisoblash texnikasi bilan jihozlangan zamonaviy potok tizimlar qo‘llanilmoqda. Bular albatta bir tomondan jarayonlarni qisqartirishga maxsulot sifatini yaxshilashga va mehnat sharoitini xavfsizlantirishga qaratilgan, lekin ikkinchi tomonidan ularda ishlovchi ishchilardan katta diqqat, sezuvchanlik va butun ish kuni davomida aqliy zo‘riqish

ISSN 3030-3907

talab qiladi. Bu esa asablarning taranglashuviga va pirovard natijada kasbiy kasallik va jarohatlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Temir yo‘llardan texnikaviy foydalanish qoidalari.

Temir yo‘l bekatlari, vokzallar va temir yo‘lning tashish jarayoni bilan bog‘liq boshqa bo‘linmalari hududlari, poezdlar harakati amalga oshiriladigan hamda manyovr va yuk ortish, yuk tushirish ishlari bajariladigan yo‘lovchilar platformalari va temir yo‘l tarmoqlari o‘ta xavfli zonalar hisoblanadi va zarurat bo‘lganda atrofi o‘rab qo‘yiladi. O‘ta xavfli zonalarda fuqarolarning bo‘lishi va ob’ektlarning joylashtirilishi, bunday zonalarda ishlar bajarish, temir yo‘llar orqali yurish va ularni kesib o‘tish qoidalari davlat temir yo‘l transportini boshqarish organi tomonidan belgilanadi.

Harakatdagi tarkib, shu jumladan harakatdagi maxsus sostav va konteynerlar, temir yo‘llarning er ustki qurilmalari qismlari hamda temir yo‘l transportiga etkazib beriladigan boshqa texnika vositalari va mexanizmlar, shuningdek yo‘lovchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlar tegishli normativ hujjatlar bilan belgilangan harakat xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va ekologiya xavfsizligi talablariga mos kelishi lozim.


Temir yo‘l transporti faoliyatida foydalaniladigan texnika vositalari va mexanizmlarni, shuningdek ko‘rsatiladigan xizmatlarni sertifikatlashtirish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Hududida xavfli yuklarni ishlab chiqarish, saqlash, ortish, tashish va tushirish ishlari amalga oshiriladigan ob’ektlar umumiy foydalanishdagi temir yo‘llardan va inshootlardan ularning xavfsiz ishlashini ta’minlaydigan masofada uzoqlashtirilgan bo‘lishi kerak.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tasarrufida Toshkent, Xovos, Qo‘qon, Andijon, Samarqand, Tinchlik, Buxoro, Qarshi, Termez, Qo‘ng‘irot, Urganch temir yo‘l bekatlarida tiklash poezdlaridan iborat texnika vositalari zaxirasi mavjud (1-rasm).



ISSN 3030-3907



Фиг. 2

1-rasm Tiklash poezdi.

Tiklash poezdi quyidagi texnik vositalari bilan jixozlangan bo‘lishi lozim:

- ko‘tarma kranlar va moslamalar;
- gidravlik domkratlar;
- lebedka tortqichlri bilan;
- traktor va buldozer;
- elektr dizel stansiyasi;
- yoritgich (projektor) o‘rnatgich moslama;
- avtomashinalar;
- yong‘inga qarshi uskunalar;
- metall kesuvchi va payvandlash mashinasi;
- tezkor operativ aloqa vositalari;
- Bundan tashqari rels va shpallarning zahirasi;

Temir yo‘llar, shahobcha yo‘llar va ulardagi inshoot va qurilmalarni loyihalashtirish, qurish va qayta qurishda, ikkinchi yo‘llarni elektrlashtirish va qurishda, shuningdek, ko‘rsatilgan gabaritlarga tenglashtirilgan foydalanishdagi qurilmalarda S va Sp gabaritlariga rioya qilish kerak. Ta’mirlash, qurilish va boshqa xil ishlarni amalga oshirishda inshoot va qurilmalarning gabaritlarini buzish man etiladi.

Temir yo‘lning barcha elementlari (tuproq ko‘tarma, yuqori tuzilmalar va sun’iy inshootlar) mustahkamligi, barqarorligi va holati bo‘yicha ushbu uchastkada poezdlarning belgilangan tezlikda xavfsiz va tekis harakatlanishini ta’minlashi lozim.

Lokomotiv depolari, lokomotivlarga texnikaviy xizmat ko‘rsatish punktlari, ustaxonalar, anjomlash (ekipirovka) qurilmalari hamda lokomotiv xo‘jaligining boshqa inshoot va qurilmalarining joylashuvi va texnikaviy jihozlanishi poezdlar harakatining belgilangan miqdorini, lokomotivlardan samarali foydalanishni, sifatli ta’mir va texnikaviy xizmat ko‘rsatish, moddiy resurslardan oqilona foydalanish va mehnatning xavfsiz sharoitlarini ta’minlashi lozim.(2-rasm).

ISSN 3030-3907




2-rasm Lokomotiv depo.

Vagon depolari va uchastkalari, vagonlarga texnikaviy xizmat ko‘rsatish punktlari, yuvish-bug‘lash statsiyalari hamda vagon xo‘jaligining boshqa inshoot va qurilmalarining joylashuvi va texnikaviy jihozlanishi poezdlar harakatining belgilangan miqdorini, sifatli ta’mir va texnikaviy xizmat ko‘rsatishni, moddiy resurslardan oqilona foydalanish va mehnatning xavfsiz sharoitlarini ta’minlashi lozim. Ta’mirlash-anjomlash depolari va yo‘lovchi texnikaviy stansiyalari yo‘lovchi vagonlarni reysga sifatli tayyorlash uchun zarur (3-rasm Ilova).




3-rasm Vagon depolari.

Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha nazorat va takliflar.

Nazorat mehnatni muhofaza qilishni boshqarishning muhim vazifasi hisoblanadi. Quyidagilar nazoratga olinadi:

a) ish joylari holatining ularning mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiqliligi;

b) mehnat qonunchiligi, direktiv organlarning qarorlariga, mehnatni muhofaza qilishning boshqa me’yoriy hujjatlari, davlat standartlari va qoidalari talablariga rioya qilinishi;

ISSN 3030-3907

v) mehnatni muhofaza qilishni boshqarish vazifalarining amalga oshirilishi bo‘yicha ishlarning bajarilishi;

g) ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri tekshirilishi;

d) mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha buyruqlar, farmoyishlar, ko‘rsatmalar, tadbirlar va rejalarning bajarilishi;

Nazorat tizimi asosan sex va bo‘lim xizmatlari, ustalar, brigadirlar va muayyan ish bajaruvchilarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘z vazifalarini bajarishini tekshirishga qaratilishi kerak. Nazoratning barcha turlari nafaqat mehnatni muhofaza qilish standartlari, qoidalari va me’yorlaridan chetga chiqishlarni aniqlashi, balki qoida buzarliklarni keltirib chiqaruvchi sabablarni tahlil qilishi, shuningdek ularni bartaraf etish tadbirlari ishlab chiqilishini qamrab olishi lozim.

Mehnatni muhofaza qilish holatini nazorat qilishda mehnat sharoitlari parametrlari, ishlab chiqarish uskunalari va texnologik jarayonlarning xavfsizligi, xodimlarning himoyalash vositalari sifati ustidan nazorat qilish bo‘yicha o‘lchash uslublari va vositalarini qamrab olgan metrologik ta’minot ko‘zda tutilishi lozim. Mehnatni muhofaza qilish holatini taxlil qilish uchun quyidagilardan foydalanish mumkin:

- baxtsiz hodisa va kasb kasalliklar haqidagi materiallar (N-1 shaklidagi dalolatnoma)dan;
- kasallikka chalinishi va mehnatga qobiliyatini vaqtincha yo‘qotganligi haqidagi ma’lumotlar (3-1 shaklidagi mehnatga qobiliyatsizlik varaqalari) dan;
- avariya, yong‘in chiqish, qulash va h.k.ni tekshirish dalolatnomalaridan;
-nazorat organlari, mehnat texnik inspeksiyasi, mehnat sharoitlari bo‘yicha davlat ekspertlarining ko‘rsatmalaridan;
- ish joylarini attestatsiya qilish ma’lumotlaridan;
- sexlarning sanitariya-texnik holati pasportlari ma’lumotlaridan;
-nazoratning 1 va 2-bosqichlarni tekshiruv jurnallaridan, 3-bosqich dalolatnomalaridan.

Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tahlil qilishda quyidagilardan foydalanish mumkin:

- mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ish rejalari va ularning bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotlardan;
- mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlarni o‘tkazilganini qayd etish jurnallaridan;
- mehnat sharoitlari bo‘yicha ish joylarini attestatsiyalash bayonnomalaridan;
- nazoratning 2 va 3 - bosqichlarini o‘tkazish jadvallaridan;

ISSN 3030-3907

- mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha majlislarlarning bayonnomalaridan;
- uskunalarni rejali oldindan ta’mirlash va sinov jadvallaridan;
- mehnatni muhofaza qilishni moddiy ta’minlash buyurtmalari va boshqa hujjatlardan;

Mehnatni muhofaza qilish masalalari bilan shug‘ullanadiganlar ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlaridan, xodimlarning tayyorgarligidan kelib chiqqan holda korxonalarda mehnatni muhofaza qilish holatini baholash uchun ko‘rsatkichlarning har-xil tizimlarini ishlab chiqishlari va ulardan foydalanishlari mumkin. Masalan, sexlar va ishlab chiqarish brigadalarida mehnatni muhofaza qilish holatini baholash uchun ish joylarida mehnat sharoitlarini, xodimlarni mehnat xavfsizligi qoidalariga sifatli o‘qitilishini, mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ma’muriyat va muxandis-texnik xodimlarning ijroiya faoliyatini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa. Temir yo‘l transportida poezdlar harakati xavfsizligini ta’minlash ustidan nazorat qiluvchi maxsus tarkibiy bo‘linma, shuningdek temir yo‘lda avariyalar oqibatlarini tugatuvchi avariya-tiklash bo‘linmalari faoliyat ko‘rsatadi. Ana shu bo‘linmalar to‘g‘risidagi nizom, shuningdek harakat xavfsizligi buzilishlarini tasniflash, xizmat tekshiruvini olib borish va hisobga olish tartibi davlat temir yo‘l transportini boshqarish organi tomonidan belgilanadi.

Temir yo‘lda tashish xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan davlat nazorati va boshqa choralar ichki ishlar, Davlat xavfsizlik xizmati organlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Temir yo‘llarda yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

Temir yo‘l bekatlari, vokzallar va temir yo‘lning tashish jarayoni bilan bog‘liq boshqa bo‘linmalari hududlari, poezdlar harakati amalga oshiriladigan hamda manyovr va yuk ortish, yuk tushirish ishlari bajariladigan yo‘lovchilar platformalari va temir yo‘l tarmoqlari o‘ta xavfli zonalar hisoblanadi va zarurat bo‘lganda atrofi o‘rab qo‘yiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi va O‘zbekiston temiryo‘lchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi Respublika kengashi o‘rtasidagi 2023 – 2025 yillar uchun tarmoq kelishuvi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisdagi nutqi –Toshkent: O‘zbekiston, 22.12.2022.
3. Karimov, Hayot faoliyati xavfsizligi (temir yo‘l transportida). S.S. Sulaymanov, R.S. Razikov, O.T. Aliyev, Z.SH. Tursunov Toshkent-2022.

ISSN 3030-3907

4. O.Qudratov A. T. G‘aniyev. O‘. Yo‘ldashev. Xayotiy faoliyat xavfsizligidan ma’ruza kursi.Toshkent –Aloqachi-2020-356 b.
5. Narziyev Sh.M., Kurbonov Sh.X.Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma - T.: “Yangi nashr”, 2019. - 234 b.
6. Hasanova O.T.., Zayniddnov V.V., Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik. –T.: “Aloqachi”, 2020. – 482 b.
7. https://www.railway.uz/uz/informatsionnaya_sluzhba/novosti/34038/
8. https://www.ilo.org/global/about-the-ilo/newsroom/news/WCMS_650697

ISSN 3030-3907